



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
Xolmatova Dilshoda Sherali qizi	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI BOLALARIDA JAMOADA ISHLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi

Navoiy viloyati pedagogic mahorat markazi
Maktabgacha boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi
kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda bolalarning jamoaviy faoliyatga moslashuvi, o'zaro hamkorlik, muloqot madaniyati, roli o'yinlar va ijtimoiy munosabatlar orqali jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishning emotsional-qiziqishli, kommunikativ, o'yinli-faoliyatli va ijtimoiy-refleksiv komponentlari tavsiflanib, ularning mazmuni hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda hamkorlik, mas'uliyat, liderlik, empatiya va ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, jamoada ishlash ko'nikmalari, hamkorlik, kommunikativ kompetensiya, roli o'yinlar, ijtimoiy-refleksiv rivojlanish, emotsional rivojlanish, liderlik, empatiya, bolalar jamoasi, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiylashuv, muloqot, tarbiya, innovatsion metodlar.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and psychological foundations of developing teamwork skills in children within preschool education organizations. The research highlights issues regarding children's adaptation to collective activities, mutual cooperation, communication culture, and the development of teamwork skills through role-playing games and social relationships. Furthermore, it describes the emotional-interest, communicative, play-activity, and social-reflexive components of teamwork skill formation, uncovering their content and practical significance. The research results serve as an important methodological basis for developing cooperation, responsibility, leadership, empathy, and social engagement qualities in preschool-aged children.

Key words: preschool education, teamwork skills, cooperation, communicative competence, role-playing games, social-reflexive development, emotional development, leadership, empathy, children's collective, pedagogical technologies, socialization, communication, upbringing, innovative methods.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические и психологические основы формирования навыков командной работы у детей в дошкольных образовательных организациях. Исследование освещает вопросы адаптации детей к коллективной деятельности, взаимного сотрудничества, культуры общения, а также развития командных навыков через ролевые игры и социальные отношения. Кроме того, описываются эмоционально-познавательный, коммуникативный, игрово-деятельностный и социально-рефлексивный компоненты формирования навыков командной работы, раскрываются их содержание и практическая значимость. Результаты исследования служат важной методической основой для развития у детей дошкольного возраста качеств сотрудничества, ответственности, лидерства, эмпатии и социальной активности.

Ключевые слова: дошкольное образование, навыки командной работы, сотрудничество, коммуникативная компетенция, ролевые игры, социально-рефлексивное развитие, эмоциональное развитие, лидерство, эмпатия, детский коллектив, педагогические технологии, социализация, общение, воспитание, инновационные методы.

KIRISH

Respublikamizda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini tubdan takomillashtirish, bolalar jamoasi bilan tashkil etiladigan mashg'ulotlarning mazmuni va samaradorligini kafolatlovchi me'yoriy asoslarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar belgilangan:

- har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;
- har bir bolaning iste'dod nishonalari, qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun teng shart-sharoitlar yaratilishi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish hamda ularni sog'lomlashtirishda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishning uyg'unligi;
- bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan individual yondashuvning ustuvorligi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash kabi maqsadlar belgilangan. Mazkur hujjatda soha vakillari zimmasiga milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakli va usullarini joriy etish, o'quv-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish kabi mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirish yuklatilgan.

Shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarida "maktabgacha ta'lim - maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishlari, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari hamda madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallashini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon" sifatida ta'riflanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan innovatsion metod va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jamoaviy munosabatlarini o'rganish muammosi ko'p yillar davomida pedagogika va psixologiya fanlarida o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Chunki maktabgacha yosh davrida bola ijtimoiy tajriba, ijtimoiy harakatlar va faoliyat usullarini o'zlashtiradi hamda ularning ijtimoiy mohiyatini anglay boshlaydi. Bu esa uning sotsializatsiyasi va individuallashuvini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarning jamoa muhitiga moslashuvi va o'zaro hamkorlik munosabatlarini ta'minlash orqali bola shaxsining rivojlanishida yuqori natijalarga erishish mumkin. Avvalo, bolalar guruhdagi tengdoshlari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik o'rnata olsalar, mashg'ulotlar jarayonida bilish operatsiyalarini samarali bajaradilar. Ikkinchidan, tengdoshlari bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish ularning so'z boyligi jadal ravishda ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Rus pedagogi P.F. Lesgaftning fikricha, insonning bog'cha yoshidagi davri shunday bosqichki, aynan shu davrda bolalarda xarakter sifatlarining dastlabki namunalari shakllanadi va axloqiy xulq-atvor asoslari yuzaga keladi. Ushbu nuqtai nazardan qaraganda, bolalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish ularda jamoaviy munosabatlarda ijobiy xulq-atvor sifatleri va ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim davr hisoblanadi.

Maktabgacha ta'limda tarbiyachilar, bolalar jamoasi va umuman ta'lim muhiti bola tajribasining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Chunki bolalar bog'chasi submadaniy tuzilma bo'lib, unda ijtimoiy ta'lim jarayonlari orqali bola qadriyatlar, munosabatlar, xulq-atvor uslublari va muayyan tartib-qoidalarni o'rganadi, o'zlashtiradi hamda ularni o'z shaxsiyatiga integratsiya qiladi.

T.I. Babaeva o'z tadqiqotlarida bolalarning kognitiv hamda ijtimoiy-kommunikativ rivojlanishida, shuningdek, ta'limiy muammolarni samarali hal qilishda bolalar va kattalar o'rtasidagi o'yin hamkorligi tajribasining muhimligini alohida ta'kidlaydi.

N.A. Korotkova kattalarning bolalar bilan hamkorligini quyidagicha izohlaydi: "Ta'lim jarayonida kattalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy shakli to'g'ridan-to'g'ri o'qitish emas, balki birgalikdagi hamkorlik faoliyati bo'lishi kerak. Hamkorlik - bu kattalarning faoliyat jarayoniga teng ravishda qo'shilishidir".

Hamkorlikdagi faoliyat bolalarda bilishga intilish, muloqotga kirishish hamda ijtimoiy xatti-harakatlar orientatsiyasining rivojlanishiga zamin yaratadi. Bunda kattalarning birgalikdagi faoliyati voqelikdagi ijtimoiy ahamiyatga ega tajribalarni eng maqbul shaklda o'zlashtirish imkonini beradi. Biroq shuni ham e'tiborga olish kerakki,

didaktik topshiriqlarni bajarish jarayonida bolalarning kattalar bilan hamkorligidan ko'ra, tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyati natijasida o'quv-bilish topshiriqlarini tezroq va sifatliroq o'zlashtirishlari kuzatiladi.


J. Piaje tadqiqotlarida bolalarning tengdoshlari va kattalar bilan muloqoti o'rtasidagi farqli jihatlar qiyosiy o'rganilgan. Unga ko'ra, tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlar tenglik tamoyiliga asoslangan bo'lsa, kattalar bilan munosabatlar ierarxik xarakterga ega. Yuqorida bayon etilgan tahlillar tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati ularda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga kelishga asos bo'ladi.

Hamkorlik pedagogikasi - bu shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishi yo'lida muhim qadam hisoblangan o'qitish va tarbiyalash jarayonidagi birgalikdagi faoliyatdir. Hamkorlik o'zida birgalikdagi faoliyatga xos bo'lgan xususiyatlarni mujassamlashtiradi. Jumladan, muayyan maqsad yo'lida ishtirokchilarning birgalikda faoliyat yuritishi, yaxlit jarayonning o'zaro aloqador qismlarga ajratilishi, ishtirokchilar o'rtasida vazifalarning taqsimlanishi va boshqarilishi hamda yakuniy natijaga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik-psixologik adabiyotlar va sohaga oid tadqiqotlarni o'rganish asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilindi hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini tarkib toptirishda bola shaxsining qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olish, muloqotchanlikni rivojlantirish, o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, rolli o'yin faoliyatiga jalb etish hamda maqbul ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishiga alohida e'tibor qaratish lozimligi aniqlandi.

Ushbu nazariy tahlillarga tayangan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishning emotsional-qiziqishli, kommunikativ, o'yinli-faoliyatli hamda ijtimoiy-refleksiv komponentlari belgilab olindi (1-rasmga qarang). Mazkur komponentlar tegishli bilim, ko'nikma va tajribalarni egallash hamda shakllantirish bilan tavsiflanadi.



Bizningcha, mazkur komponent maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarining jamoada ishlash ko'nikmalari bilan bog'liq so'zlarni to'g'ri qo'llashi, fikrlarini aniq va tushunarli ifoda etishi, imo-ishora va mimika orqali muloqot qilishi, boshqa bolalar va tarbiyachilarni diqqat bilan tinglashi hamda ularning fikrlarini tushunishi, birgalikda ishlashi, boshqalarga yordam ko'rsatishi va o'z navbatida yordamni qabul qilishi, jamoa ichida vazifalarni taqsimlashi va ularni mas'uliyat bilan bajarishi, jamoa ichida yuzaga keladigan muammolarni aniqlashi, kelishmovchiliklarni hal qilishi hamda kun tartibi doirasida hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirishga doir bilim va ko'nikmalarning tarkib topganligini ifodalaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shunday xulosaga kelish mumkin: maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishning o'yinli-faoliyatli komponenti jamoada yetakchilik qilish, liderlik va tashabbuskorlikni namoyon etish, bolalarni jamoaviy o'yinlarga jalb qilish orqali ularni birga-



likda ishlashga o'rgatish, rolli o'yin faoliyatida o'z harakatlarini nazorat qilish, jamoa qoidalariga rioya etish, tartib-intizomni saqlash hamda turli rolli faoliyatlar va o'yinlar orqali tajribasini boyitishni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy-refleksiv komponent maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarida o'zaro hurmat, empatik munosabat, o'z hissiyotlarini boshqarish, bir-biridan o'rganish, boshqalarni qabul qilish va o'z-o'zini nazorat qilish kabi ijtimoiy-refleksiv bilimlarni tarkib toptirishni anglatadi.

Ijtimoiy refleksiya ijtimoiy ongning tarkibiy qismi sifatida shaxs subyektivligining muhim hodisasini ifodalaydi, insonning hissiy holati va fikrlarini shakllantirishga imkon beradi hamda harakatlar va munosabatlarni tahlil qilish, baholash va amaliy o'zgartirish subyekti sifatida uning o'zidan foydalanadi.

Shuningdek, mazkur tarkibiy qism ijtimoiy va jamoaviy muloqot jarayonida madaniy qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirish, har bir ta'lim subyekting ijodkorligi va o'zini namoyon qilish erkinligini aks ettiruvchi madaniy yondashuvning mohiyatini o'zida mujassamlashtirishi bilan ahamiyatlidir.

Bizningcha, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish nuqtai nazaridan ijtimoiy-refleksiv komponent maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarida hurmat ko'rsatish va ijtimoiy me'yor hamda talablarni o'zlashtirish, ijtimoiy qoidalarga rioya qilish, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish, o'zini boshqarish va nazorat qilish, qabul qilingan qarorlarni birgalikda muhokama qilish, o'z harakatlarini nazorat qilish hamda o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarini tarkib toptirishni nazarda tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish ularning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalarning o'zaro hamkorlikka asoslangan faoliyati, muloqot jarayonlari, rolli o'yinlar hamda birgalikdagi vazifalarni bajarishi ularda jamoaviy ishlash madaniyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bolalarda mas'uliyat, tashabbuskorlik, liderlik, empatiya, o'zaro hurmat va o'zini nazorat qilish kabi muhim ijtimoiy sifatlar shakllanadi.

Jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda emotsional-qiziqishli, kommunikativ, o'yinli-faoliyatli va ijtimoiy-refleksiv komponentlarning o'zaro uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur komponentlar bolalarning tengdoshlari bilan samarali hamkorlik qilishi, muammolarni birgalikda hal etishi hamda ijtimoiy tajribalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion pedagogik metodlar, hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyalari va jamoaviy faoliyatlarni keng qo'llash bolalarda jamoada ishlash ko'nikmalarini samarali shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Natijada ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyor barkamol avlodni tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni [Elektron resurs]. - Kirish rejimi: <https://lex.uz/ru/docs/-4646908>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori [Elektron resurs]. - Kirish rejimi: <https://lex.uz/docs/5179335>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. Ikk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari (1-ilova) // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. - 2022. - 05.04. - № 09/22/153/0266.
4. Щетинина А.М. Социализация и индивидуализация в детском возрасте : учеб. пособие. - Великий Новгород : НовГУ им. Ярослава Мудрого, 2004. - 132 с.
5. Хонхожаева М.Р. Мактабгача ёшдаги болалар ижтимоийлашувида жамоанинг ўрни // Central Asian Academic Journal of Scientific Research. - 2022. - № 5. - Б. 443. - URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalar-izhtimoiylashuvida-zhamoaning-rni> (мурожаат санаси: 01.03.2023).
6. Давлетшин М.Г., Дўстмухамедова Ш., Мавлонов М., Тўйчиева С. Ёш даврлари ва педагогик психология : ўқув-методик қўлланма. - Тошкент, 2004. - 118 б.
7. Žygaitienė B. Teorinis elgesio kultūros ugdymo modelis ir jo integravimo į technologijų pamokas galimybės // Pedagogika. - 2003. - Vol. 68. - P. 309-314. - URL: <https://www.vdu.lt/cris/handle/20.500.12259/93890>
8. Бабаева Т.И., Римашевская Л.С. Как развивать взаимоотношения и сотрудничество дошкольников в детском саду. Игровые ситуации, игры, этюды : учеб.-метод. пособие. – СПб. : Детство-Пресс, 2012. – С. 5.
9. Короткова Н.А. Образовательный процесс в группах детей старшего дошкольного возраста. – 2-е изд. – М. : ЛИНКА-ПРЕСС, 2012. – 208 с.
10. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. – М. : Педагогика-Пресс, 1999. – ISBN 5-7155-0694-8.
11. Чекушкина Е.Н. Социальная рефлексия как компонент формирования общественного сознания // Context and Reflection: Philosophy of the World and Human Being. – 2019. – Vol. 8, Is. 5A. – С. 104–109. – URL: <http://publishing-vak.ru/file/archive-philosophy-2019-5/13-chekushkina.pdf>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.